



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Ahmedova Gulmira Oxunjon qizi

TDPU 2-kurs doktoranti

Toshkent sh. Mirobod t. Farg'ona yo'li ko'chasi

+998919200218

gulmiraahmedova0505@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15175599>

Annotatsiya. Bugungi kunda chet tillarini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish mamlakatimiz ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Xorijiy tillarni o'qitishning an'anaviy usullarining zaif tomonlari sababli til ko'nikmalarini egallashda bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirayotganligi kommunikativ o'yinlardan foydalanib chet tilini o'rganishni talab qilmoqda. Shu sababli, tilni o'qitishning kommunikativ yondashuvini qo'llash usullarini muhokama qilish va ulardan o'rinli foydalanish hamda chet tili darslarida kommunikativ o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni kommunikativ bo'lgan sinf faoliyatiga jalb qilishning eng yaxshi usullaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, grammatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, strategik kompetensiya, nutq faoliyati turlari, kommunikativ o'yinlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

Xorijiy tillarini o'zlashtirishda hozirgi kunda zamonaviy metodika prinsiplarining eng muhim tomoni kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Zamonaviy chet tili o'qituvchisi faqatgina o'zining til bo'yicha bilimiga, o'quvchi shaxsini psixologik-pedagogik rivojlanish qonuniyatlarini bilishgagina tayanib qolmasligi kerak. Shu bilan bir qatorda, u ma'lum kasbiy-kommunikativ, ya'ni spetsifik sifatlar, ko'nikmalarni rivojlantirishi kerak. Ular unga birinchidan o'quvchilarni o'quv faoliyatidagi ichki, «yashirin» rezervlarini boshqarishga imkon beradi, ikkinchidan o'quvchilarni minimal kommunikativ darajada bo'lsa ham chet tillarini o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. U holda ham, bu holatda ham psixologik-uslubiy rezervlar muloqotga kirishi chet tilidan muloqot vositasi sifatida foydalanish mahoratiga bog'liq. O'quvchilar chet tilini o'rganayotganda muloqotda foydalaniladigan belgilar tizimi sifatida tilning tabiatini tushunishdan boshlashlari kerak. Bu suhbat davomida rasmiy tilni bilish (fonetika, lug'at va grammatika), shuningdek, til tizimini bilishni o'rganish kerakligini anglatadi.

Kommunikativ kompetensiya atamasi asoschisi D.Hayms fikriga ko'ra, KK mazmuni tilga bog'liq holatni ichki sezgi asosida bilishdir. D.Hayms til haqidagi



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

bilimlar (grammatika)ni o'zlashtirish jarayonida undan to'g'ri foydalanishni ham, ya'ni qachon, qayerda, kimga, qay tarzda va nima haqida gapirish maqbulligini o'rganish orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirib boradi, deya kommunikativ kompetensiya atamasining muallifiga aylandi. KK tuzilishi jihatidan grammatik, sotsiolingvistik, strategik, diskursiv kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. D.Haymsning bu nazariyasi ikkinchi chet tilini o'qitishda muhim qadamlardan biri bo'ldi. O'tgan asrning 80-yillarida M.Kaneyl (M.Canale) va M.Sveyn (M.Swain) KK nazariyasini rivojlantirishni davom ettirdilar va o'sha davrdan boshlab ushbu tushuncha keng tarqala boshladi. Ular bilimlar tizimi va qobiliyatlar bilan birga muloqotni shakllantiradigan kompetensiyaning asosiy 4 ta turini ajratganlar. Bular:

- grammatik kompetensiya (leksika, fonetika, to'g'ri yozish, semantika va sintaksis);
- sotsiolingvistik kompetensiya (aniq nutq jarayonida shakli va tuzilishi bo'yicha kontekstga mos keluvchi);
- diskursiv kompetensiya (og'zaki va yozma nutqda mantiqan bog'langan iboralarni tuza olish);
- strategik kompetensiya (chet tilida muloqot jarayonida nutqiy va ijtimoiy bilimlardan kelib chiqib tilni yetarli darajada bilmaslikni muhim manbalar bilan kompensatsiya qilish).

Chet tilini o'rganish o'ziga xos jarayon bo'lib, uning samaradorligi quyidagilarga bog'liq:

- chet tilini o'qitish orqali ta'lim mazmunini tashkil qilgan aspektlarni, nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv) ni yaxlit va izchillikda lingvistik kompetensiyaning asosi bo'lgan nutqiy kompetensiya tarkibida o'rgatish;
- lingvistik nutqiy (kommunikativ), til, pragmatik, sotsio-lingvistik va o'quv-kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish;
- fanlararo integratsiya (o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi)ni tashkil qilish;
- nutq faoliyati turlari (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) hamda shakllari (og'zaki va va yozma nutq) orasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash maqsadida rivojlantiruvchi mushtarak tizimni ishlab chiqish;
- o'quvchilarga madaniyatlararo muloqotga xos bo'lgan urf-odatlarini singdirish bilan o'z xalqi madaniyatini chuqur anglab yetishga o'rgatib borishdan iborat.

Zamon talablariga mos holda chet tillarini mukammal o'rganish har bir o'sib kelayotgan yosh uchun juda ham muhim. Chet tillarni bilish orqali yoshlarimiz



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

xorijlik tengdoshlari bilan bemalol ilm-fanda raqobatlasha oladi, jahon sahniga chiqa oladi.

Asosiy e'tibor o'quvchilar kommunikativ faoliyatini o'stirishga xizmat qiluvchi barcha faoliyatlarni o'ziga mujassamlashtirgan kommunikativ o'yinlar orqali o'quvchilar nutqning muloqotga layoqatliligi, muloqot strategiyasi kabi jihatlarini shakllantiruvchi ko'nikma va malakalar hosil qilish usuliyatini ishlab chiqishga urinishdir, chunki, bunday bilimlarsiz muloqot olib borishning boshqa faoliyat turlarini amalga oshirib bo'lmaydi. Bunday faoliyatlarni amalga oshirishda o'qituvchi o'quvchilardan bir qator til mashqlarini bajarishlarini tavsiya etadi va bunga yetishgandan so'nggina ikkinchi faoliyat turi, ya'ni muloqot davomida olib boriladigan faoliyatlarini amalga oshirishga kirishadi.

Muloqot davomida olib boriladigan faoliyatlar o'quvchilarda jonli nutqni shakllantirishga, ularning muloqotga layoqatlilik jihatlarini va muloqot strategiyasining shakllantirishga xizmat qiladiki, bunda shartli nutq mashqlariga asosiy e'tibor beradi. Muloqot davomida olib boriladigan faoliyatlardan yana bir turi sof nutq faoliyatlari bo'lib, unda o'quvchilar o'qituvchi nazoratida sof nutq mashqlari orqali erishadilar.

Shunisi e'tiborga moliyki, barcha faoliyat turlari kechib borar ekan o'qituvchi faqatgina kommunikativ faoliyatini o'stirishda turli tuman faoliyatlar, o'yinlar jumladan monologik nutq orqali dialogik va polilogik (ikkitadan ortiq suhbatlash ishtirokida) nutq faoliyatlari barchasi u yoki bu darajada bir-birini to'ldirib, muloqotning to'laqonli va uzluksiz, eng muhim samarali kechishiga xizmat qiladi. Bunday kommunikativ faoliyatlarni o'stirishda barcha faoliyatlar lingvodidaktik talablar darajasida amalga oshirilishi, ma'lum ko'zlangan asosiy maqsad - chet tilida erkin muloqot olib borishlik qobiliyatini shakllantirishga muntazam tayyorlaydi.

O'qituvchi kuzatuvchi, nazoratchi, yoki boshqaruvchi vazifasini bajaradi, o'quvchilar esa barcha faoliyatlarning ham obyekti, ham ijrochisi, ham kuzatuvchisi, ham baholovchisi bo'lib, muloqotning markaziy figuralariga aylanadilar.

Bunday kommunikativ o'yinlarning yana bir afzal tomoni shundaki o'quvchilarda muloqot erkinligi, o'zaro hamkorlik, o'zaro hurmat, o'zaro mas'uliyatlik va o'zaro javobgarlik hislari shakllanadiki, bunday hissiyotlar majmuasi ularga nafaqat chet tilini o'qitishda, hayotda ham qo'l keladi va katta samaralar berishi tabiiy.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Bugungi kunda innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga, ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi. Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o'quvchilarga yetkazib berishda eng muhim vositalardan hisoblanadi. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish o'quvchilarning tilni nafaqat o'rganishi, balki haqiqiy hayotda undan foydalana olishni ta'minlaydi. Bu o'qituvchilarning darslarida muloqotga asoslangan yondashuvni qo'llashlari, haqiqiy vaziyatlar asosida mashqlarni tashkil etishlari va o'quvchilarga madaniy me'yorlarni tushuntirish orqali amalga oshadi. KK o'quvchilarga nafaqat chet tilida muloqot qilish, balki global madaniyatning bir qismi bo'lish imkonini beradi. Dars davomida qo'llaniladigan an'anaviy metodlar bilan bir qatorda ilg'or, kommunikativ o'yinlardan ham foydalanish til ko'nikmalarini kutilgandan ko'ra tezroq rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Canale, M and Swain, M, 1980. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics
2. Hymes D. On Communicative Competence. In J. B. Pride and J. Holmes (eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin, 1972.
3. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. – T., O'qituvchi nashriyoti, 2012.
4. Jalolov J.J., Mahkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology (Theory and Practice). – T.: 2015.
5. Mahkamova G.T., Alimov Sh.S., Ziyayev A.I. Innovative pedagogical technologies in the English Language Teaching.- T., 2017.
6. Turdiyev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. – T.: T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2015.